

***Nurmurodova Nafisa Faxriddinovna***

*Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali. Tabiiy-ilmiy gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida assistenti*

***Sayfiyeva Nozima O`rinboy qizi***

*Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi yo`nalishi 24-23 guruh talabasi*

***Annotatsiya:*** ozonlashtirilgan yog‘, immunitet mustahkamligi, erta qarishga qarshi, antioksidant tizimni faolligi, B<sub>5</sub> provitamini faolligi.

***Kalit so‘zlar:*** sedana yog‘i, timoxinon, vitaminlar, bakteriatsid, mis, silin, miristen.

***Аннотация:*** озонированное масло, иммунная сила, омоложение, активность антиоксидантной системы, активность провитамина B5.

***Ключевые слова:*** масло седана, тимохинон, витамины, бактерицид, медь, силин, миристен.

***Abstract:*** ozonated oil, immune strength, anti-aging, antioxidant system activity, provitamin B5 activity.

***Key words:*** sedana oil, thymoquinone, vitamins, bactericide, copper, silin, myristene.

Qora sedana yog‘i ko‘p asrlar davomida sharq tabiblari tomonidan tabobatda qo‘llanilib kelinmoqda. Qadimgi hind tabobatida hamda Vavilonda go‘zallik va uzoq umr ko‘rish maqsadida turli kosmetik vositalarga qo‘shib foydalanilgan. Yaqinda qora sedananing babaho xususiyatlarini zamonaviy olimlar tomonidan ham tan olinganligi sir emas. Ko‘p bora olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shunisi aniqlandiki, ushbu mahsulot noyob kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, shu tufayli u organizmga samarali ta‘sir etib ko‘plab kasalliklarni davolashda yordam beradi.

Qora sedana kalsiyga kalsiyga boy ekanligiekanligi bilan aloxida ahamiyatga ega. Uning 100 gramida 1000mg kalsiy mavjudligi aniqlangan. Shuningdek rux moddasi ham mavjud bo`lib, istemol qilinganda suyaklarni mustahkamlanishiga yordam beradi. Organezmdagi yomon xolesterinlarni xususiyatiga ega bo`lgan antioksedantlarning makoni ekanligi aniqlangan.

Shu bilan birgalikda tanadagi qon bosimini nazorat qiladigan magniyning mavjudligi alohida ta`kidlab o`tilgan. Kalsiy va magmiy birgalikda asabiylik va stressga qarshi yaxshi samara berishi aniqlangan. triptofan va tiamin aminokislotalari esa organizmda baxt gormoni bo`lgan serotonin gormonini ishlab chiqarilishida o`z xissasini qo`shishi takidlab o`tilgan. Terini mustahkamlaydigan, uning elastikligini oshirishga yordam beradigan vitamin E mavjudligi sababli terini sedana yog`idan foydalangan holda massaj qilish tavsiya etilgan.

Qora sedana yog`ida yuzlab faol moddalar bor. Ularga organik kislotalar (liniloin, miristin, stearin va boshqalar) yarim to`yinmagan yog` kislotalari, aminokislotalar, fetosterollar, efir moylari, saponinlar, 40% temoxinon, nitelon, beta-sterollar kiradi. Ushbu mahsulot kalsiy, fosfor, mis, selen, rux, temir kabi mikroelementlarga hamda A, C, E, B vitaminlariga va ko`plab boy komponentlarga ega ekanligi aniqlangan.

Tarkibida foydali yog`lar mavjudligi bois ushbu mahsulot ichaklar faoliyatini ham yaxshilashi aniqlangan. Antioksedantlar immunitet tizimini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga egadir. Klechatkalar esa jigarni himoya qilib, organezmdan toksinlarni chiqarib yuborishga o`z hissasini qo`shishi takidlab o`tilgan.

Qora sedana yog`i o`zining ko`p turli va boy tarkibi tufayli organizmda quyidagi jarayonlarni amalga oshiradi: immunitetni tiklaydi, yallig`lanishga qarshi, bakteriatsid, allergiyaga qarshi, isitma tushuruvchi, og`riq qoldiruvchi, siydik haydovchi, tinchlantiruvchi, safro haydovchi, spazmolitik, kuchli parazit kasalliklarga qarshi kurashadi, shilliq tiklovchi, sklerozga qarshi, viruslarga qarshi, virusli infeksiyalarga qarshi (grippdan boshlab spidgacha), yoshartiruvchi, pH hujayralarni tiklaydi, gemoroyini davolaydi, xolesterinni muvozanatga

keltiradi, ovqat hazm qilish tizimini tozalash kabi ko‘plab jarayonlarni amalga oshiradi. Sedana yog‘ining foydali xususiyatlarini yanada oshirish maqsadida ozonlashtirilib iste‘molga tavsiya qilinmoqda.



Ozonlashtirilgan yog‘ sedana moylarini gazsimon ozon bilan boyitish natijasida olinadi. Ozon uchta kislorod atomidan iborat bo‘lib o‘ta faol birikma. Ozon tez tarqaladigan modda, lekin yog‘da berilgan konsentratsiyada parchalanmay uzoq vaqt turadi. Yog‘ tarkibidagi ozonidlar inson hujayralarini tom ma‘noda tiriltiradi. Ular qonda kislorod miqdorini oshiradi, fermentlarni faollashtiradi, bu jarayon hayot faoliyatimiz uchun zarur bo‘lgan energiya ishlab chiqilishiga olib keladi. Bundan tashqari ular immun tizimida “mudrab” qolgan hujayralarni jonlantiradi va yana o‘z vazifalarini faol bajarishga majbur qiladi. Ular organizmda to‘planib qolgan toksin va shlaklarni chiqaradi. Surunkali charchoq sindromini davolaydi. Qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi. Qonda kislorod darajasini 2-10 marta oshishiga yordam beradi. Tanada bakteriya, zamburug‘ va viruslarni yo‘qotadi, immunitetni mustahkamlaydi. Teri ichiga kirib yoki yuzasida kislorod atomlari ajraladi va bir necha yo‘nalishda organizmga mahalliy va umumiy ta‘sir ko‘rsatib harakatlanadi.

Ozonning lokal harakati qon aylanishini yaxshilashda (mikroserkulatsiya), to‘qimalarning kislorod bilan to‘yinishida ko‘rinadi, antioksidant tizimini faollashtiriv, ozon umumiy immunitetni modulyatsiyalovchi ta‘sir ko‘rsatadi. Organizmning erta qarishiga qarshi kurashadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida hozirgi kunda ozonlashtirilgan shampun ishlab chiqarilmoqda. Tarkibida ozon, qora sedana yog‘i, keratin B<sub>5</sub> provitaminsini mavjud bo‘lib ular quyidagi ta‘sirlarga egadir.

Ozon ta'sirida qon aylanishi yaxshilanadi, soch ildizlarini mustahkamlaydi, mo'rtlik va quruqlikning oldini oladi, sedana yog'i zamburug'li infeksiyalarni va teri qichishini yo'qotadi, shuningdek yuqori biologik faollik hisobiga soch oqarishini to'xtatadi. B<sub>5</sub> provitamini soch parvarishini ta'minlaydi: oziqlantiradi, sochning ildizidan uchigacha tiklaydi va kuchli qiladi, soch tolalarini qoplab ularni kuchli yaltiroq va bo'ysunuvchan qiladi, sochning o'sishiga yordam beradi, epidermis hujayralari bo'linishini tezlashtiradi. B<sub>5</sub> provitaminini namlik va mayinligini ta'minlab, terida namlik yo'qolishini kamaytiradi va uning mayin va elastikligini ta'minlaydi.

**Xulosa** o'rnida shuni aytishimiz mumkinki qora sedana yog'ining noyob kimyoviy tarkibi va organizmga ta'siri tufayli ko'plab kasalliklar shifo topadi. Shu o'rinda har bir organizmni sog'lom hayot kechirishida sedana yog'ining o'rnini beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Analitik, fizkolloid va biologik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari Z.aminov, S.Musayeva, X.mamadiyarova, G.xodjayarova Toshkent-2018
2. Hayvonlar bioximiyasi hamda fizik va kolloid ximiya asoslaridan amaliy mashg'ulotlar M.Hasanov Toshkent-1992
3. Hayvonlar biokimyosi M.M. Hasanov Toshkent- 1996